

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishni tashkil etish usullari

Turg'unov Sobitxon Toshpo'latovich

Inamov Nurmirza Dedamirzayevich

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Yurtimizda turli sohalarida, jumladan, xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Hozirgi kunda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, ta'lim-tarbiya, o'z-o'zini baholash, nazorat etish, uzluksiz tizim.

Abstract: The young generation growing up in various fields in our country, including the public education system, demands a review of the process of existence with education. Currently, it is extremely necessary to search for effective forms and methods of preparing the young generation, who are our future, for life based on the latest achievements of science and culture.

Keywords: Continuous education, training, self-assessment, control, continuous system.

Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlar ikki kichik tizim doirasida, ya'ni darsda va darsdan tashqari faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar, ya'ni ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra suhbati, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlari, san'at festivallari, konferensiya, va boshqa turli yo'nalishlardagi tadbirlar, mustaqil ta'lim, mustaqil ma'lumot, o'zini-o'zi tarbiya, mustaqil ishlari, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, tarbiyaviy munosabatlar jarayoni (inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiat-inson, inson-san'at-inson munosabatlari), hamda pedagogik tajriba-sinov va pedagogik amaliyot jarayonlari majmui hamda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish, ya'ni ularning har birining samaradorligi ikkinchi bir jarayon samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ya'ni pedagogik jarayonning asosiy komponentlaridan biri hisoblangan

ma'ruza mashg'uloti samaradorligi seminar mashg'ulotlari natijaviyligiga o'z ta'sirini ko'rsatishi yoki mustaqil ta'lim uchun asos sifatida xizmat qilishi, shuningdek, pedagogik tajriba-sinov jarayoni yoki talabalar (oliy o'quv yurtlari va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi muassasalari talabalar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot jarayonlari samaradorligi kelajak avlod ta'lim-tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olishimiz zarur. Mazkur zaruriyatlar ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni talab etadi.[1] Sinfdan tashqari ishlar deganda – mактаб o`qituvchilari yoki chetdan taklif qilingan mutaxassislar rahbarligida darsdan tashqi vaqtida o`quvchilar o`rtasida yo`lga qo`yiladigan va olib boriladigan ta`lim-tarbiya ishlari nazarda tutiladi. Maktabdan tashqari ishlar o`quvchilar bilan olib boriladigan, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan uyuştiriladigan ta`lim-tarbiya va madaniy ishlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Ma'naviyat va ma'rifat“ jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida“gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, nazorat qilish, boshqarish avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'naliishlari orqali amaliyotga joriy etishga bog'liq. Ushbu strategiyaning maqsadi shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga tashkil etish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'planib kelgan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligi etirof etilmoqda. Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan birgalikda olib boriladi. Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stleri, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasи

orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlashda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish tushiniladi. Tarbiyaning bosh maqsadi — yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'alariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amalda joriy etishdir. Tarbiyaning asosiy vazifasi — shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish tushiniladi.

Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishlariga yordam berish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi tuyg‘usini uyg‘otish;
- o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka oshirish, tobora o‘sirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;
- har bir o‘smir yoshdagi bolalarning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli sohalarda amaliyatga tadbiq etish. Bolalar ijodkorligi, qobiliyatini yuzaga chiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratish;
- insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini (nohaqlikka, yolg‘onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo‘llanish zarur;
- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat-muloqotni o‘rganish, maktab, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta’sir etadi. Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o‘zaro hamkorlikning ta’sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta’minalash orqali, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilishdir.

Tarbiyaning bosh maqsadi — yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'alariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib, amalda bajarishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi — shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishlariga yordam berish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv va ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;
- o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil etish, tobora o‘stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;
- har bir o‘smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit yaratib berish;
- insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg‘onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo‘llanishi zarur;
- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat-muloqotni o‘rganish, o‘z xalqi, davlati, uning himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turish, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O‘zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog‘iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli etib tarbiyalash;
- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislarini rivojlantirish, o‘zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta’lim-tarbiya;
- mustaqil davlatimiz O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirish;
- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish;

— sog‘lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo‘lish istagini shakllantirish;

— yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o‘rgatish. — tarbiyada tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigit-qizning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy, huquqiy va erkinligini e’tiborga olish;

— yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg‘usini qaror toptirish;

— milliylikning o‘ziga xos an’analari va vositalariga tayanish;

— shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e’tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratib beradi. Sinfdan tashqari ishlarning o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak, klub dasturlarining rangbarangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tarbiyani eng avvalo insonning o‘ziga qaratilganligi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan butun dunyo hamjamiyati tan olgan qadam-baqadam amalga oshirilayotgan «o‘zbek modeli» da juda to‘g’ri belgilandi. Dunyoda birinchi bor insonni diqqat e’tibori uning o‘zligini anglashga qaratildi. O‘zligini anglash birinchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug’ siymoligini anglash va o‘zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo’lsa, ikkinchidan uning o‘ziga xos milliyinsoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iboratdir. Yuqorida sanab o‘tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. CHunki komil inson sifatlarini tarbiya sohasidagi ilmlarini xulosalab, mujassamlashtirsa, ular asosan ezgu niyat, fikr, ezgu so’z, xushmuomila va ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratdir. Shu yuqoridagi uch sifat, o‘qitishning va ta’lim-tarbiyaning bosh maqsadidan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. С.Т.Турғунов, Л.А.Мақсадова. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси-Т.: “Фан” нашриёти. 8-12 б. ISBN-2009.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch. T.;Ma’naviyat, 2008.

3. Karimov I.A.Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir". T.: O'zbekiston, 2007.
4. R.A.Mavlonova,N.X.Rahmonqulova,B.A.Normurodova, K.O.Matanazarova „Tarbiyaviy ishlar metodikasi” darslik Toshkent 2014.
5. Ortikova, K., Umarov, A., & Inamova, M. (2023). INCREASING THE EFFICIENCY OF SAW GINNING TECHNOLOGY. The American Journal of Engineering and Technology, 5(10), 12-27.
6. Dedamirza, I. M., Soomro, N., Insopaliyevna, K. O., & Ravshanbekovna, J. G. (2024). GEOMETRY OF THE GIN-SAW TEETH EFFECT ON SEPRATION OF FIBERS FROM SEED COTTON DURING THE GINNING PROCESS. Pakistan Journal of Biotechnology, 21(1), 114-119.